

Qutlug' ayyomga munosib tayyorgarlik: obodlik va hamjihatlik

// 22.08.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/hashar20260822>

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan yurtimizda bayramga munosib tayyorgarlik ko'rish, hududlarni obodonlashtirish va aholi o'rtasida hamjihatlik muhitini yanada mustahkamlashga qaratilgan ezgu tashabbuslar amalga oshirilmoqda.





Shu munosabat bilan mamlakatimiz bo'ylab o'tkazilayotgan **"Mahallada obodlik va mehr-saxovat oyligi"** dasturi doirasida "O'zkiyosanoat" AJ markaziy apparati va tarmoq tashkilotlarida umumxalq xayriya hashari tashkil etildi.





Hashar davomida xodimlar faol ishtirok etib, hududlarni tozalash, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirdilar. Jamoaviy mehnat jarayonida yurtdoshlarimizni birlashtiruvchi mehr-oqibat, saxovat va hamjihatlik kabi qadriyatlar yana bir bor namoyon bo'ldi.





Zero, **mustaqillikning 35 yilligi** — ozod va obod Vatanimiz taraqqiyoti, xalqimizning birdamligi hamda yurtimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarini keng namoyon etish uchun muhim ayyomdir. Ushbu qutlug' sanaga munosib tayyorgarlik ko'rishda har bir ezgu tashabbus, har bir obodlik ishi munosib hissa bo'lib xizmat qiladi.





